www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI EKOLOGIK BILIMLARNI O‘ZLASHTIRISHDA FANLAR UZVIYLIGI

Ravshanova Nargiza Norboevna
Nizomiy nomidagi TDPU “Maktabgacha ta'lim texnologiyasi” kafedrasi p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.
Avezberdiyeva N,Ne'matullayeva O, Abdullayeva N, Abduraxmonova S.
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabalari

Annotatsiya: Maqolada uzviylikda ekologik bilimlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish va chuqurlashtirishni, aqliy faoliyatga qo‘yiladigan talablarning murakkabligini, shaxsiy va ijtimoiy xulq-atvorning shakllanishini ta'minlaydi.
Kalit so‘zlar: mashg‘ulot, fanlar uzviyligi, ekologik ta'limda, atrof-muhitga munosabat,ekologik madaniyat, interaktiv.
Аннотация: Статья предусматривает поэтапное развитие и углубление экологических знаний в периодичность, комплексность требований к умственной деятельности, формирование личностного и социального поведения
Ключевые слова: обучение, интеграция наук, в экологическом образовании, отношение к окружающей среде, экологическая культура, интерактив.
Annotation: The article provides for the gradual development and deepening of environmental knowledge in the periodicity, complexity of requirements for mental activity, the formation of personal and social behavior
Keywords: education, integration of sciences, in environmental education, attitude to the environment, ecological culture, interactive

Kirish: 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni so‘zsiz amalga oshirish, respublika hududlaridagi ekologik muammolar yechimiga ta'lim tizimini joriy qilish bilan hissa qo‘shish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi bir nechta qarorqabul qildi shulardan «Ta'lim to‘g‘risida»gi va «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga [1] muvofiq uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichma-bosqich tatbiq qilish va shu asosda ekologik ta'limning samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish;

Ta'limdagi uzviylik, odatda, ta'lim va rivojlanish jarayonidagi bosqichlar o‘rtasidagi munosabatlar tushuniladi. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang‘ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta'minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otib, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo‘lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o‘qishga tayyorlash, bolani sog‘lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo‘lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o‘qishga, shaxsiy qobiliyatlari va iste'dodlarini, tizimli ta'limga bo‘lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Buning uchun «Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasida bilimlarni o‘zlashtirishda ta'lim turlariaro, turli yosh guruxlar, fanlararo bog‘liqliklarni chuqur tahlil qilib, ularning uzviyligi hamda uzluksizligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Uzviylik – ta'lim-tarbiya jarayonining muayyan ketma-ketlikda tashkil etilishini ifodalovchi muhim sifat bo‘lib, ma'lum bosqichda avvalgi bosqich ta'lim-tarbiya faoliyati

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

mazmunini tashkil etuvchi bilim, ko‘nikma va malakalarning mustahkamlanishi, kengaytirilishi va chuqurlashtirilishini ta'minlaydi. Uzviylik tushunchasi pedagogikada ikki xil bosqichda olib boriladi. Birinchidan, ta'lim turlari (bo‘g‘inlari) orasidagi uzviylik. Ikkinchidan, o‘quv fanlari orasidagi uzviylik. Bu odatda fanlararo yoki predmetlararo bog‘lanish orqali amalga oshiriladi. Bulardan kelib chiqib, yana bir holat mavjudki, uzviylik maktabgacha yoshdagi bolalarga bilim berish mazmunining muayyan ketma-ketlikda tizimli joylashtirilishi, yangi mavzuni o‘zlashtirishda mavjud bilimlarga tayanish, o‘quv materialining ma'lum darajada navbatdagi bosqichlarda qo‘llanilishi, ta'lim-tarbiya jarayoni bosqichlarining davomiyligini ifodalaydi.

Hozirgi kunda uzluksiz ta'lim tizimi nuqtai nazaridan uzviylik muammosining yechimini topish, uni amaliyotga tatbiq etishning samarali usul va vositalarini ishlab chiqish zarurati vujudga keladi. Bunda tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarni yosh xususiyatlariga mos keladigan ta'lim mazmunini tanlash, tanlangan ta'lim mazmunini uzviylik tamoyiliga asosan joylashtirish va uni pedagogik jihatdan asoslash muhim ahamiyatga ega. Tanlangan ta'lim mazmuni imkoniyatlaridan kelib chiqqan va ta'lim oluvchilar bilim darajasini inobatga olgan holda mavjud hamda yangi bilim, ko‘nikma, malakalarni tizimli va uzviy ravishda shakllantirish ta'lim oluvchilarning to‘liq o‘zlashlashtirishlarini ta'minlaydi. Mashg‘ulot mazmunini uzviylik asosida joylashtirish nafaqat muayyan fanning o‘quv dasturi va rejasining tuzilishiga, balki unga turdosh bo‘lgan fanlar o‘quv dasturiga moslashtirilishi orqali ta'lim samaradorligini oshirishga ham ta'sir etadi.

Bolaga ekologik bilimlar tayyor holda berilmaydi, u kelgusida bilimlarni manbalardan mustaqil ola bilish, fikrlay olish, mustaqil pozisiyada tura olishga o‘rgatiladi. Barcha bolalarni o‘z qobiliyatlari ehtiyojlari darajasida albatta o‘zlashtirib olishlari inobatga olinadi. Yuqorida keltirilgan interaktiv usullar va metodlardan foydalanish maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligiga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bosqichi bo‘lgan va uning poydevorini tashkil qiluvchi maktabgacha ta'lim hozirgi kunda ta'lim sifati va samaradorligini belgilashda asosiy o‘rin egallaydi. Shu sababli maktabgacha ta'lim zamonaviy talablar asosida bo‘lishi jiddiy ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalashda uzviylikni ta'minlash tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli yosh guruxlarida ilm-fan va tabiat markazida tabiiy fanlar to‘g‘risida ya'ni atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko‘rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qilish, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g‘amxo‘r munosabat, mashg‘ulotlari olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli yosh guruxlarida tabiatshunoslik negizidan bir nechta tabiiy fanlarga ajratilib, ta'limiy faoliyat olib boriladi. Jumladan: botanika, zoologiya, fizika, tabiiy geografiya kabi fanlar. Bu ilm-fan va tabiat markazlarida, tabiatshunoslik va tabiiy geografiya fanlarining uzviyligi, uzluksizligini ta'minlash masalasiga quyidagicha yondashish mumkin:

- tarbiyalanuvchilarni yosh psixologik xususiyatlarining inobatga olinishi;
- ta'lim-tarbiya mashg‘ulotlari mavzular markazlar bilan uzviyligi;
- mavzular bayonida tarbiyalanuvchilar doirasi, ularning ta'lim olish sharoitlari va yoshini e'tiborga olinishi;
- ta'lim-tarbiya mashg‘ulotlari mavzular mazmunini yorituvchi bilimlar tarbiyalanuvchilarni faollika undash darajasi;
- ta'lim-tarbiya mashg‘ulotlari mantiqan to‘g‘ri tuzilishi;
- ta'lim-tarbiya mashg‘ulotlari oid mavzular ketma-ketligining ta'minlanganligi;
- ta'lim-tarbiya mashg‘ulotlari bo‘yicha berilayotgan o‘yinlarning mazmun moxiyati va uzviyligi;
- ta'lim-tarbiya mashg‘ulotlarida ko‘proq innovasion texnologiyalardan foydalanish;

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

- ta'lim-tarbiya mashg‘ulotlarini zamonaviylashgan turlari, jumladan; komp'yuter texnikasi, turli xil fanga doir multi fil'mlar, kalendar taqvim, globus xaroratni o‘lchovchi termometir, mul'timedia uskunalardan samarali foydalanish.

Tarbiyalanuvchilarning olgan bilimlari kelajakda maktabda o‘qishga maqsadli va tizimli tayyorlashda asos bo‘ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, interaktiv usullarni qo‘llab tayyorlov guruhida tajriba-tadqiqot mashg‘ulot ishlanmasidan namuna keltiramiz

Mavzu: Daraxtning xususiyatlari bilan tanishtirish.

Maqsad: Daraxtlar haqidagi tushunchalarni mustahkamlash. Tajriba tadqiqot orqali daraxt xususiyatlarini aniqlash. Xulosa chiqarish uchun o‘z shaxsiy tajribasiga tayanish.

Jihoz: Chizilgan daraxt, suv to‘ldirilgan idishlar, arralangan yog‘och.

Faoliyatning olib borilishi:

Tarbiyachi: – Bolajonlar hozir o‘lkamizda qaysi fasl?

Bolalar javobi.

Tarbiyachi: – To‘g‘ri hozir bahor fasli ekan, tashqarida ob-havo qanday?

Bolalar: – Bugun ob-havo issiq quyosh charaqlab turibdi.

Bolalar: – Keling shunday yaxshi kayfiyat bilan suhbatimizni davom ettiramiz. Bolajonlar men sizlarga bir chiroyli surat ko‘rsataman, unga qarab savollarga javob bering.

– Bu qaysi faslga mos daraxt?

– Daraxt hayoti bo‘yicha nimalar deyish mumkin?

– Daraxt qanday paydo bo‘lgan?

– Daraxtlarning bizning hayotimizdagi o‘rni qanday?

– Dehqon, bog‘bonlarni daraxt o‘stirishdagi faoliyatini bilasizmi?

– «Birni kessang, mingni ek» maqolini bilasizmi?

kabi savollarni berib bolalarni tabiatga ehtiyotkorono munosabatda bo‘lish hissi tarbiyalanadi.

Tarbiyachi: – Bolajonlar, keling endi bir o‘yin o‘ynaymiz. O‘yinning nomi «Shamol va quyosh» deb nomlanadi. Bu o‘yinda bolalar sayr qilib yuradilar, birdan shamol esadi. Daraxtlarning shamolda esishini bolalar harakat bilan ko‘rsatadilar. Tarbiyachi «Quyosh chiqdi» desa bolalar sokinlikni namoyish etadilar. O‘yin 2-3 marta takrorlanadi.

Keling endi daraxtlar turlarini AKT moslamasida «Uch og‘a-ini botirlar» ertagidagi daraxtlarning bir-biri bilan so‘zlashuv lavhasini tomosha qilamiz deb bolalar diqqatini monitorga qaratadi. Bu lavxa orqali bolalar daraxtlarni parvarishlashni o‘rganadi, ular jonli tabiat ekanligini tushunadilar.

Tarbiyachi: – Bolajonlar keling endi siz bilan guruhlarga bo‘linib ish bajaramiz. O‘zingiz yoqtirgan mevalaridan tanlang. Bolalar 4 markazga qo‘yilgan daraxtlardan o‘z daraxtini topib o‘rinlariga joylashadilar va markazda ishlaydilar.

Til va nutk markazida.

«Bu qanday daraxt» o‘yinini o‘ynaydilar.

Bu o‘yinda bolalar daraxtlarni nomini aytib, uning foydali tomonlari haqida so‘zlab beradilar. Daraxt mevalari nomini ingliz tilida aytadilar.

San'at markazida.

Bolalar plakatga «Daraxtdan nimalar qilinadi?» o‘yini o‘ynashadi. Bu o‘yinda daraxtdan qilingan jihozlarning suratini chizishadi. Buning uchun har bir guruhga bittadan plakat beriladi.

(Mebel, uy, qalamlar, gugurt kabi suratlarni chizadilar).

Syujetli va rolli o‘yinlar markazida.

“To‘g‘ri va noto‘g‘ri» o‘yinini o‘ynaymiz Bu o‘yinda to‘g‘ri va noto‘g‘ri holatdagi lavhani sahnalashtiradilar.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

Tarbiyachi: – Mana bolalar bu sahnani ko‘rdingiz. Bu bolaga nisbattan nima degan bo‘lar edingiz?

Bolalar o‘z fikrlarini aytadi.

Fan va tabiat markazida.

Tajriba joyiga bolalar diqqatini jalb qilib, daraxtning arralangan bo‘lagini o‘rganadilar va daraxt yoshini bildiradigan xalqalarini ko‘rib chiqadilar. Daraxtning yoshini uning xalqalarini sanab, o‘rganib oladilar va yana daraxtning pishiqligi, issiqlikni o‘tkazuvchanligini bilib oladilar.

Tog‘oradagi suvga daraxt yog‘ochlarini tashlashadi, kuzatib xulosalaydilar. (Tarbiyachi har 5 minutda bolalarga signal chaladi bolalar bu tovushda o‘rnilaridan turib o‘rin almashadilar. Markazlarda ishlarini bajarib bo‘lgach, ochiq maydonda bolalarni san'at markazida chizgan suratlari uchun rag‘batlantirib, mashg‘ulotni yakunlaydi. [9]

Xulosa va takliflar: Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyaga maqsadli va tizimli tayyorlashda noan'anaviy mashg‘ulotlarda ta'limiy faoliyatini innovasion texnologiyalarga asoslangan holda mehr bilan bolalarga iqtidorini namoyon qilishiga sharoit yaratib berishimiz zarur. Jamiyatimizda yoshlarning ekologik-huquqiy ta'lim tarbiyasi, ekologik madaniyatini yuksaltirishning yo‘nalishlari ko‘p. Eng muhimi, ular hayotimiz asosi bo‘lgan tabiat ne'matlarini asrashga xizmat qilsagina, oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасида Экологик таълимни ривожлантириш концепцияси. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 27 майдаги 434-сон қарори 3 боб

2. Norboevna, R. N. (2021, April). IMPROVING THE MEMBERSHIP SYSTEM IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. In Archive of Conferences (Vol. 20, No. 1, pp. 97-98).

3. Ravshanova, N. N. (2020). THE PRINCIPLE OF CONTINUITY IN ENVIRONMENTAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6), 369-374.

4. Nigmatov, A. N., & Ravshanova, N. N. (2020). Scientific Preschool Environmental Education and Training Research Methodology. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), 23-31.

9. Равшанова Н.Н. “Экологик болажон” вариатив дастур Т 2021. (82-83 бет)

10. Рахмонқулова З.А., ва бошқ. “Мактабгача ёшдаги болаларни атроф муҳит билан таништириш” (катта, тайёрлов гуруҳлари учун).Т-2015.